TARJIMANING STILISTIK MUAMMOLARI

Nurullayeva Zebiniso - Alisher Navoiy Nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Tarjima - bu faqat so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish emas, balki muallifning uslubini, ohangini, hissiy rang-barangligini va madaniy qatlamlarini saqlab qolishni talab qiladigan murakkab ijodiy jarayondir. Ushbu maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan stilistik muammolar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan bir qatorda stilistik muqobillik, uslubiy transformatsiyalar, stilistik yo‘qotishlar va ularning sabablarini tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy, ilmiy va publitsistik uslublarda tarjima qilishning o‘ziga xos qiyinchiliklari hamda tarjimon tomonidan qo‘llaniladigan kompensatsiya usullari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarjima, stilistika, uslub, stilistik ekvivalentlik, badiiy tarjima, stilistik transformatsiya, til me’yori, tarjimon uslubi, madaniy adaptatsiya, stilistik kompensatsiya.

Аннотация. Перевод - это не просто перенос слов с одного языка на другой, а сложный творческий процесс, требующий сохранения авторского стиля, интонации, эмоциональной окраски и культурных слоёв. В данной статье рассматриваются стилистические проблемы, возникающие в процессе перевода. Наряду с этим анализируются стилистическая эквивалентность, стилистические трансформации, стилистические потери и их причины. Также обсуждаются специфические трудности перевода текстов в художественном, научном и публицистическом стилях и методы компенсации, применяемые переводчиком.

Ключевые слова: перевод, стилистика, стиль, стилистическая эквивалентность, художественный перевод, стилистическая трансформация,

языковая норма, стиль переводчика, культурная адаптация, стилистическая компенсация.

Abstract. Translation is not merely the process of rendering words from one language into another, but a complex creative endeavor that requires preserving the author's style, tone, emotional richness, and cultural nuances. This article examines the stylistic problems that arise during the translation process. Concurrently, it analyzes stylistic equivalence, stylistic transformations, stylistic losses, and their underlying causes. Furthermore, the article discusses the specific challenges of translating literary, scientific, and journalistic styles, as well as the compensation strategies employed by the translator.

Keywords: translation, stylistics, style, stylistic equivalence, literary translation, stylistic transformation, language norm, translator's style, cultural adaptation, stylistic compensation.

KIRISH. Til - insoniyatning eng buyuk kashfiyoti. U nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyat, tafakkur va dunyoni anglashning ko‘zgusidir. Shu sababli tarjima - ikki til o‘rtasidagi ko‘prik qurishdan ko‘ra kengroq hodisa. Tarjimon bir tilning ruhini ikkinchi tilga ko‘chirmoqchi bo‘lganida, ko‘p hollarda u muallif yaratgan uslubning nozik iplarini saqlab qolish masalasiga duch keladi.

Stilistika - bu tilshunoslikning bir tarmog‘i bo‘lib, so‘zlarning qanday tanlanishi, jumlalarning qanday qurilishi va matnning qanday ta’sir qilishi bilan shug‘ullanadi. Tarjimada stilistik muammolar deganda biz asl nusxadagi uslub xususiyatlarini maqsad tilda to‘liq yoki qisman saqlab qolish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni tushunamiz. Bu muammolar turli yo‘nalishlarda - badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy texnik uslublarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi[1].

Tarjima nazariyasi rivojlanishi bilan stilistik muammolar masalasi alohida

[1] Mirzayev I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Sharq, 2005. — 210 b.

ilmiy e’tiborga sazovor bo‘la boshladi. Yu. Nayda, V. Komissarov, A. Fyodorov, L. Barkhudarov kabi taniqli tarjimashunoslar stilistik ekvivalentlik tushunchasini ilmiy asosda o‘rganib, tarjimoning faqat mazmunan emas, balki uslub jihatidan ham to‘laqonli bo‘lishi zarurligini ta’kidlaganlar. Aynan shu masala ushbu maqolaning tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi - tarjima jarayonida yuzaga keladigan stilistik muammolari turlarini tasniflab, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda tarjimon ularni hal qilishda qo‘llashi mumkin bo‘lgan usullarni ko‘rsatib berishdir.

ASOSIY QISM. 1. Stilistika va tarjima: nazariy asoslar. Stilistikaning tarjima bilan bog‘liqligi juda chuqur. Har bir til o‘zining betakror uslubiy imkoniyatlariga ega: metaforalar, epithetlar, ritm, tovush uyg‘unligi, sintaktik tuzilmalar va boshqa vositalar orqali matn ma’lum bir emotsional va estetik ta’sir qoldiradi. Tarjimon mana shu ta’sirni boshqa tilda qayta yaratishga harakat qiladi.

Mashhur tarjimashunos V.N.Komissarov stilistik ekvivalentlikni tarjimanikidan alohida ko‘rib chiqadi va uni “pragmatik ekvivalentlik” ning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, tarjima nafaqat mazmunni, balki matnning kommunikativ vazifasini ham saqlab qolishi lozim. Demak, bir she’rdagi qofiya tuzilmasini boshqa tilda saqlab qolish - bu stilistik ekvivalentlikning yorqin namunasidir [1].

G. Touri esa “me’yorlar nazariyasi” doirasida tarjimonning maqsad tildagi qabul qiluvchi auditoriya ehtiyojlari va kutilmalariga moslashishi zarurligini uqtiradi. Bu moslashish ko‘pincha asl nusxaning stilistik xususiyatlarini qisman o‘zgartirish bilan birga keladi va muammoning qarama-qarshi tabiati - sadoqat va tabiilik o‘rtasidagi ziddiyat - ko‘rinishida namoyon bo‘ladi [2].

O‘zbek tarjimashunosligi ham bu masaladan chetda qolmagan. Suyima

G‘aniyeva, Naim Karimov, Hamid Ismoilov kabi olimlar badiiy tarjimada uslub muammolarini maxsus o‘rganib, o‘zbek tiliga xos stilistik imkoniyatlarni ochib berganlar. Xususan, o‘zbek tilidagi so‘z tartibining erkinligi, so‘z yasalishining boy imkoniyatlari va xalq hikmatlarining tarjimadagi o‘rni kabi masalalar mahalliy tarjima nazariyasida muhim o‘rin tutadi.

2. Stilistik muammolarning asosiy turlari. Tarjima amaliyotida stilistik muammolar bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Ularni quyidagi toifalar bo‘yicha tasniflash mumkin[2]:

a) Leksik-stilistik muammolar: Har bir tilda ma’lum so‘zlar faqat o‘sha tilda mavjud bo‘lgan connotation - ya’ni qo‘shimcha emotsional yoki madaniy ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “cosy” so‘zi o‘zbek tiliga “qulay”, “iliq”, “shinam” kabi so‘zlar bilan o‘girilib, lekin bu so‘zlar “cosy” ning to‘liq emotsional qatlamini qamrab olmaydi. Bunday hollarda tarjimon mazmunni saqlab, stilistik registrni yo‘qotishi mumkin.

b) Sintaktik-stilistik muammolar: Turli tillar sintaktik qurilishi jihatidan keskin farqlanadi. Lotin tilida jumla oxiridagi fe’l kutilmalilik yaratadi; nemis tilida murakkab subordinat konstruksiyalar fikrni qavatma-qavat ochadi; o‘zbek tilidagi aniqlovchi bog‘lovchisiz ulanish esa xos simmetrik ritm hosil qiladi. Bir tilning sintaktik xususiyatlarini boshqa tilda to‘liq takrorlash ko‘pincha imkonsiz bo‘lib, tarjimon matn ritmini, jumlaning qurilish mantiqini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi.

v) Tasviriy vositalar bilan bog‘liq muammolar: Metafora, metonimiya, allegori, ironi kabi tropelar tarjimada alohida qiyinchilik tug‘diradi. Chunki bu vositalar ko‘pincha konkret madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Shekspirning “Life’s but a walking shadow” metaforasini o‘zbekchaga o‘girishda

[2] Karimov U. *Badiiy tarjima muammolari*. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

tarjimon nafaqat obrazni, balki o‘sha obrazning o‘zbek o‘quvchisida qo‘zg‘atishi kerak bo‘lgan hissiyotni ham saqlab qolishga harakat qiladi.

g) Registr va ton bilan bog‘liq muammolar: Til registry - rasmiy, norasmiy, so‘zlashuv, yuqori badiiy - tarjimada saqlanishi juda muhim. Ammo turli tillarda bir xil registrni belgilovchi til vositalari har xil [3]. Masalan, ingliz tilidagi “you” kishilik olmoshi o‘zbek tiliga “sen” yoki “siz” tarzida o‘tkazilishi kerak, va bu tanlov matnning butun dialogik stilistikasini o‘zgartirishi mumkin. Shuningdek, matnning hajmi va jiddiyati o‘rtasidagi munosabat ham registrga bog‘liq.

3. Badiiy tarjimada stilistik muammolar

Badiiy tarjima stilistik muammolarning eng keskin namoyon bo‘ladigan sohasi hisoblanadi. Chunki badiiy matnda har bir so‘z nafaqat axborot tashiydi, balki estetik funktsiya ham bajaradi. Shoir yoki yozuvchi tomonidan ongli ravishda tanlangan har bir so‘z, har bir tinish belgisi, hatto jumla uzunligi ham stilistik ma’noga ega [4].

She’riy tarjimada muammo yanada murakkablashadi. Tarjimon bir vaqtning o‘zida mazmun, qofiya, o‘lcham va ohangli tovush uyg‘unligini saqlab qolishga harakat qiladi. Ammo bu to‘rtta talabni bir vaqtning o‘zida to‘la bajarish deyarli mumkin emas. Shu sababli she’riy tarjima nazariyasida “sadoqatli erkin tarjima” tushunchasi paydo bo‘lgan: tarjimon ma’noga sadoqatni shakldan ustun qo‘yadi yoki aksincha, shaklni saqlash uchun ma’noni qisman o‘zgartiradi.

Masalan, Aleksandr Pushkinning “Yevgeniy Onegin” romanini o‘zbek tiliga tarjima qilishda tarjimonlar sonetin Onegin bandini o‘zbek she’riy an’anasiga moslashtirish yoki asl band tuzilmasini saqlab qolish masalasida har xil yondashuv qo‘llaganlar. Bu esa badiiy tarjimaning stilistik muammolari bo‘yicha bir xil to‘g‘ri yechim mavjud emasligini, har bir holat individual yondashuvni talab qilishini ko‘rsatadi.

Nasriy badiiy asarlarda esa stilistik muammo ko‘pincha muallifning individual uslubi bilan bog‘liq. Ernest Xemingueyning “telegraf uslubi” - qisqa jumlalar, kam sifat, ko‘p fe’l - tarjimada saqlanishi nisbatan osonroq. Lekin Marsel Prustning uzun, ichiga-ichi joylashgan murakkab jumlalari, Vilyam Foknerning “ong oqimi” texnikasi yoki Jeyms Joycing lingvistik tajribalari o‘zbek tiliga o‘girilganda jiddiy stilistik yo‘qotishlar yuzaga keladi. Chunki o‘zbek tilidagi jumla tuzilishi, so‘z tartibining o‘ziga xos mantiq va grammatik chegaralar bu stilistik texnikalarni to‘liq o‘zlashtira olmaydi.

4. Ilmiy va publitsistik uslubdagi stilistik muammolar

Ko‘pchilik tarjima muammolarini faqat badiiy adabiyot bilan bog‘laydi. Holbuki, ilmiy va publitsistik uslublarda ham stilistik qiyinchiliklar kam emas. Bu sohalarda muammo boshqacha tarzda namoyon bo‘ladi: badiiy ta’sirlilik emas, balki aniqlik, ixchamlik va terminologik izchillik asosiy mezon bo‘ladi [5].

Ilmiy tarjimada eng katta stilistik muammo - passiv qurilmalar va nominalizatsiyaning muqobil tilga o‘tkazilishidir. Ingliz ilmiy matnlarida passiv shakl juda keng qo‘llaniladi: “It was observed that...”, “The results were analyzed...” kabi qurilmalar ilmiy ob’ektivlikni ifodalaydi. O‘zbek ilmiy tilida esa bunday passivlikni saqlab qolish ba’zan sun’iy tuyuladi va tarjimon aktiv qurilmaga o‘tishga majbur bo‘ladi. Bu esa matnning ilmiy uslub me’yorlariga mos kelish-kelmaslik muammosini keltirib chiqaradi.

Publitsistik uslubda esa masala yanada murakkab. Gazetali maqola yoki ommaviy nutqda uslub bir vaqtda axborot berish, ishontirish va ta’sir qilish vazifalarini bajaradi. Bu uslubga xos bo‘lgan ekspressivlik, emoitsional so‘zlar, ritorik savollar, ellipsis va boshqa vositalar tarjimada audiitoriyaga nisbatan moslab o‘tkazilishi zarur. Chunki maqsad tildagi auditoriyaning kutilmalari, madaniy

kontekst va nutq an’analari farq qiladi.

5. Stilistik transformatsiyalar va kompensatsiya usullari

Tarjimon stilistik muammolarni hal qilishda turli transformatsiya usullaridan foydalanadi. Bu usullar tarjima nazariyasida puxta o‘rganilgan va amaliy tarjimada keng qo‘llaniladi.

Stilistik kompensatsiya - bir joyda yo‘qolgan stilistik effektni boshqa joyda almashtirish usuli. Masalan, asl matnda muallif alliteratsiyadan foydalangan, ammo maqsad tilda o‘sha so‘zlarda alliteratsiya yaratib bo‘lmaydi. Tarjimon boshqa jumlada alliteratsiya hosil qilib, umumiy stilistik balansi saqlab qolishi mumkin. Bu usul ayniqsa she’riy tarjimada keng qo‘llaniladi[3].

Modifikatsiya - asl nusxaning stilistik vositasini maqsad tilga xos muqobil vosita bilan almashtirish. Masalan, ingliz tilidagi ironiya ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbekcha ironiya bilan o‘tkazilmay, balki o‘zbek xalq nutqida mavjud bo‘lgan ushbu stilistik funktsiyani bajaradigan boshqa vosita orqali ifodalanadi.

Stilistik neytralizatsiya - maqsad tilda muqobil topilmagan holda stilistik effektni yo‘qotish va uning o‘rnini matnning boshqa qatlami bilan to‘ldirish. Bu usul ko‘pincha zaruriy chora sifatida qo‘llaniladi va tajribali tarjimonlar uni iloji boricha kamaytirish uchun harakat qiladi.

Adaptatsiya - madaniy va stilistik mos kelmaydigan elementlarni maqsad madaniyatiga xos muqobillar bilan almashtirish. Masalan, asl matnda ingliz folklori yoki maqollariga uyg‘un stilistik murojaat mavjud bo‘lsa, tarjimon uni o‘zbek folklori yoki maqollaridan ekvivalent topib o‘tkazishi mumkin. Bu holda mazmun o‘zgarishi mumkin, ammo funktsional-stilistik ta’sir saqlanib qoladi.

[3] Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. — Leiden: Brill, 1969. - 220 p.

6. Madaniy omil va stilistik muammolar

Stilistik muammolar ko‘pincha til tizimi ichidagi farqlar bilan bog‘liq deb qabul qilinadi. Ammo aslida madaniy omil ko‘pincha tilning o‘zidan ham kuchli ta’sir o‘tkazadi. Har bir madaniyat o‘zining nutq tartibini, muloqot uslubini, ta’sir vositalarini va badiiy mezonlarini shakllantiradi. Shu sababli tarjimada “madaniyatlararo uslub” muammosi alohida o‘rin tutadi.

Masalan, Sharq adabiyotida, xususan klassik o‘zbek she’riyatida takrirlar, lazzatbaxsh takroriylik va ramziy tasvirlar uslubning asosi hisoblanadi. G‘arb adabiyotida esa lo‘ndalik, konkretlik va yangilik qimmatlidir. Bu ikki stilistik an’ananing qiymatlari turlicha bo‘lganligi sababli, Sharq asarini G‘arb tiliga tarjima qilishda tarjimon qancha takror va ramziy qatlamni saqlashi kerakligi masalasida qiyinchiliklarga duch keladi. Juda ko‘p saqlasa - o‘quvchi uchun tushunarsiz yoki zeriktirarli bo‘ladi; kam saqlasa - asl asarning ruhi yo‘qoladi.

Bu masalada R. Laddning “madaniyatlararo kommunikatsiya” konsepsiyasi foydali yondashuvni taklif qiladi: tarjimon nafaqat matnni, balki u o‘zi ham ikki madaniyat o‘rtasidagi mediator sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa tarjimonning stilistik qarorlari uni nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos darajasida ham tahlil etish zarurligini ko‘rsatadi.

7. Tarjimon uslubi va muallifga sadoqat masalasi

Tarjimaning eng qiziqarli va munozarali masalalaridan biri - tarjimonning o‘z uslubi muallifning uslubi bilan qanday nisbatda bo‘lishi kerakligi. Tarjimon o‘zining ham ijodiy shaxsiyatiga ega, va u o‘z uslubini asl nusxaning uslubiga bo‘ysundirishi, yoki aksincha, muallifning asarini o‘z uslubi orqali talqin qilishi mumkin.

Bir xil asarning turli tarjimonlar tomonidan yaratilgan versiyalari solishtirmasiga qarasak, bu farq yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Shekspirning “Hamlet”ini

o‘zbek tiliga tarjima qilgan turli tarjimonlar bir xil monologni tubdan boshqacha uslubda o‘girganlar. Kimdir me’yoriy adabiy tilga tayanib, klassik adabiy uslubda tarjima qilgan; kimdir esa zamonaviy o‘zbek tiliga yaqin, jonli nutq uslubida yozgan. Bu ikki yondashuv ham o‘zining estetik asoslariga ega.

Tarjimashunos L. Venuti bu muammoni “ko‘rinmas tarjimon” va “ko‘rinadigan tarjimon” tushunchalari orqali tadqiq qiladi. Uning fikricha, G‘arb tarjima an’anasida tarjimon o‘zini “ko‘rinmas” qilishga, ya’ni muallifning ovozini to‘siqsiz o‘tkazishga harakat qiladi. Ammo bu “ko‘rinmaslik” o‘z-o‘zicha stilistik tanlovni bildiradi - tarjimon o‘z uslubini yo‘q qilishga uringan holda ham ma’lum bir uslubiy yo‘nalishni tanlaydi.

XULOSA

Tarjimaning stilistik muammolari - bu faqat texnik masala emas, balki til, madaniyat, estetika va ijodiy muhokama kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy-amaliy masaladir. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, bu muammolar badiiy tarjimadan ilmiy-texnik tarjimaga qadar barcha sohalarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Stilistik ekvivalentlikka erishish - bu tarjimoning ideal maqsadi, ammo har doim to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydigan nishon. Tarjimon bu nishonga yaqinlashish uchun stilistik kompensatsiya, modifikatsiya, adaptatsiya va transformatsiya kabi usullardan maqsadga ko‘ra foydalanishi zarur. Bunda tarjimon til bilimidan tashqari, madaniy bilim, estetik his va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.

O‘zbek tarjimashunosligida stilistik muammolar hali to‘liq tadqiq etilmagan sohalar borligini ta’kidlash lozim. Ayniqsa zamonaviy o‘zbek adabiy tilining stilistik imkoniyatlari va ularning jahon adabiyotini o‘girishi amaliyotidagi o‘rni chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. Shuningdek, raqamli davr kontentining tarjimasidagi stilistik

muammolar - ijtimoiy tarmoq tili, multimedia matni, reklama va boshqa yangi uslub turlari - bu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalishni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, stilistik muammolarni bilib, uni ongli ravishda hal qila oladigan tarjimon - nafaqat tilni, balki insoniyatning ma’naviy merosini to‘g‘ri va go‘zal tarzda boshqa madaniyatga etkazuvchi haqiqiy vositachi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekti). - Moskva: Visshaya shkola, 1990. - 253 b.
2. Mirzayev I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sharq, 2005. - 210 b.
3. G‘aniyeva S. Badiiy tarjima va uslub muammolari. Toshkent: Fan, 1987.-178 b.
4. Karimov N. O‘zbek tarjimashunosligining ayrim masalalari. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 144 b.
5. Mirzayev, T., Usmonov, S., Halilov, E. (2007). Tarjimashunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Karimov U. Badiiy tarjima muammolari. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
7. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. - Leiden: Brill, 1969. - 220 p.
8. Newmark P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.- 292 p.
9. Fyodorov A. V. Osnovi obshchey teorii perevoda. - Moskva: Visshaya shkola, 1983. - 303 b.
10. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965. - 103 p.